

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 147 (1208), 2024-yil 24-iyul, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



“HOZIRGI ZAMON VA YANGI O'ZBEKISTON”

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O'zbekiston” nashriyotida chop etilgan yangi kitobi shunday deb nomlanadi

Yangi kitob

Prezident Shavkat Mirziyoyev serqirra faoliyatining ma'no-mazmuniga aylangan, keyingi yetti yil davomida mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning markazida bo'lib kelayotgan milliy mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, odamlarni hayotdan rozi qilish, inson qadrini ulug'lash kabi ezgu tushunchalar mazkur kitobning bosh g'oyasi, asosiy leymotivini tashkil etadi.

Xizmat qilishni o'zim uchun ulkan sharaf va mas'uliyat deb bilaman.

Darhaqiqat, Prezident Shavkat Mirziyoyev serqirra faoliyatining ma'no-mazmuniga aylangan, keyingi yetti yil davomida mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning markazida bo'lib kelayotgan milliy mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, odamlarni hayotdan rozi qilish, inson qadrini ulug'lash kabi ezgu tushunchalar mazkur kitobning bosh g'oyasi, asosiy leymotivini tashkil etadi.

Hech shubhasiz, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan, Yangi O'zbekistonda barpo etish strategiyasining tub maqsadi va negizida mujassam bo'lgan g'oya va intilishlar bugungi kunda mard va olijanob xalqimizning fidokorona mehnati, aql-zakovati bilan real voqelikka aylanib bormoqda. Kitobni mutolaa qilish jarayonida bu haqiqatni yanada chuqur his etamiz va mana shunday tarixiy o'zgarishlar davrida bu ulug'vor o'zgarishlarning nafaqat guvohi, balki faol ishtirokchisi bo'lib yashayotganimizdan albatta faxrlanamiz.

Jami 6 bobdan iborat kitobning “Insoniyat tanlagan barqaror rivojlanish yo'li” deb nomlangan dastlabki bobida muallif o'quvchi e'tiborini hozirgi zamondagi asosiy xavf-xatarlarga qaratadi. Bu tahdidlarni keltirib chiqargan omillarni atroflicha tahlil etib, ularni bartaraf qilish bo'yicha aniq amaliy yechimlarni taklif etadi.

Asarning “Yangi O'zbekiston — ijtimoiy davlat” deb nomlangan ikkinchi bobi mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ulkan ishlar va ularning natijalari tahliliga bag'ishlangan. Muallif ta'lim, tarbiya, ilm-fan va madaniyat, aholini ijtimoiy himoya qilish, xususan, kambag'allikka qarshi kurashish, sog'liqni saqlash va sport masalalari bugungi kunda O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirish, uning huquq va erkinliklari, hayotiy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan muhim islohotlarning ajralmas bir qismiga aylanib, aniq samara berayotganini hayotiy misollar orqali ko'rsatib beradi.

Davomi 2-beta

DUNYO NIZOMIDA YANGI O'ZBEKISTON RUHI!

Aynan mustaqillik tufayli mamlakatimiz suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatga, xalqaro huquqning to'laqonli subyekti aylandi. Dunyo bizni yangitdan tanidi va tan oldi. Yer yuzidagi turli davlatlar va xalqlar bilan do'stlik hamda hamkorlik aloqalarimiz tobora kengayib, yurtimizning xalqaro maydondagi mavqeyi va nufuzi ortib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat MIRZIYOYEVning “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qaroridan.



AQL VA SAODAT YO'LI

Dunyo ishlarining “tishi o'tkir” bo'ladi. Sal yengil kelsangiz, befarq va hafsalasiz bo'lsangiz, uvalanib ketish hech gap emas. Ammo insoniyat taqdiri shu — doim tahlika ichida yashash, kurashlar ichra bo'lish. Uning yakuni — qismat. Shu bois, olamda turfa taqdir egalari yashaydi, ular jamlanib, elning, mamlakat va milliy davlatlarning umumiy manzarasini hosil qiladi.

Insoniyat tarixi hech qachon bir maromda to'kis kechmagan, tahlikalarga to'la bo'lgan. Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash esa avlodlarni o'ziga tildirib keladi. Shuning uchun ham tarix hech qachon zerikarli ko'rinmaydi.

Yana bir mulohaza bor. Bu — aql va saodat yo'lidagi tafakkur hodisasi.

Betob kishiga shirin taom ham nordon sezilishi mumkin. Ammo aql bu taom aslida shirinligi, kasallik tufayli nordon

tuyulayotgani haqida axborot berib turadi. Shunday ekan, tabiiy savol tug'iladi: aql yordamida oq-u qorani ajratib olib, saodatga erishish mumkin ekan-da?

Ammo dunyo haqiqati har doim bunday bo'lmaganini ko'rsatadi. Atrofimizda bo'layotgan urushlarga, nizolarga, begunoh odamlar qurbon bo'layotganiga nazar solsak, hamma aqlini ishga solib, shu qonli yo'lga kirayotganini, hamma o'zini to'g'ri deb da'vo qilayotganiga guvoh bo'lamiliz. Bugun insoniyat ilg'ayotgan katta tahlikaning asl sabablari shunda. Bilganiga amal qilmastik esa eng og'ir xato!

Bulardan anglihladiki, XXI asrga kelib, insoniyat nihoyatda murakkab yashash tarziga o'tib bormoqda. Dunyo nizomi tubdan o'zgarayapti. Sun'iy idrok qurshovida qolyapimiz. Shunday sharoitda mamlakatlar o'z zimmasiga qanday vazifalarni olishi kerak, degan savol barchamizni bezovta qilishi tabiiy, albatta.

Bugun jamiyatda inson qadrini yuksaltirish, xavfsizligini ta'minlash, har bir kishi tug'ilishi bilan ega bo'ladigan tabiiy huquqlariga asosan, ularga munosib turmush sharoitini yaratish eng muhim, hayot-mamot masalasi bo'lib qoldi.

BUYUK ISHONCH — MILLIY HODISA

Nega ayrim mamlakatlar xalqi farovon yashaydi? Ba'zi mamlakatlarda esa farovonlik yo'li tanlanmaydi? Bu ham aql bilan bog'liq o'z g'oyasini to'g'ri deb biluvchi tanlov yo'lidir.

Davlat siyosatida tanlangan yo'l samarasi odamlar hayotida aks etishi ayon haqiqat. Shu bois, milliy davlatlilik amaliyotida muhim vositalar bo'lishi taraqqiyot kafolati sifatida qaraladi.

Davomi 3-beta

Muhammad ABUNAYYAN:

“O'ZBEKISTONDA “ACWA POWER” LOYIHALARI PORTFELI TOBORA KENGAYAYOTGANI MAMLAKAT RAHBARIYATINING UZOQNI KO'ZLAB OLIB BORAYOTGAN ISLOHOTLARINI YAQQOL AKS ETTIRADI”

O'zbekiston — Saudiya Ishbilarmonlar kengashi hamraisi, “ACWA Power” kompaniyasi asoschisi va boshqaruvi rasi Muhammad Abunayyan “Dunyo” axborot agentligi muxbiriga intervyu berdi.

— Abunayyan janoblari, avvalo, yangi energetika sohasining nufuzli vakili sifatida ushbu tarmoqdagi mavjud tendensiyalarni qanday ko'rayotganingizni va bu borada O'zbekiston bilan hamkorlikda qanday istiqbolarni ochish mumkinligi haqidagi fikrlaringizni bilmochi edik?

— Bugungi kunda energetika sohasida barqaror rivojlanish va dekarbonizatsiyaga bo'lgan global intilish tufayli sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Asosiy tendensiyalar qayta tiklanadigan va kam uglerodli energiya manbalariga o'tishni o'z ichiga oladi. Mamlakatlarimiz hukumatlari o'rtasidagi mustahkam ikki tomonlama aloqalar tufayli

O'zbekiston “ACWA Power” kompaniyasining eng tez rivojlanayotgan portfellaridan biri sifatida ajralib turadi va Saudiya Arabistonidan keyingi eng yirik bozorimiz hisoblanadi.

Mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyarlari tashabbusi bilan amalga oshirilgan energetika sohasini dekarbonizatsiya qilish bo'yicha qayta tiklanadigan va kam uglerodli loyihalar faol rivojlantirilmoqda. Hukumatning aniq strategiyasi va “yashil” energiyaga o'tish islohotlarini, jumladan, “yashil” vodorodni qo'llab-quvvatlash bo'yicha islohotlar xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit yaratmoqda.

Davomi 2-beta



Islohotlar samarasi

O'ZBEKISTON TEKSTIL SOHASIDA GIGANT IQTISODIYOTGA AYLANMOQDA

Mamlakatimizda inson hayoti va faoliyatining barcha sohaslarida majburiy mehnatning oldini olish va unga to'liq barham berishga doir kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Fuqarolar, ayniqsa, bolalar majburiy mehnatidan foydalanish, ularni paxta terish yoki boshqa qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilishning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha davlatimizning qat'iy siyosiy irodasi va tizimli islohotlar natijasida O'zbekistonda majburiy mehnat to'liq barham topdi. O'z o'rnida uning tashkiliy, huquqiy asoslari ham mustahkamlandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 44-moddasidan “Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta'lim olishiga to'siqlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi” degan norma joy oldi.

Konstitutsiyamizga ilk marotaba kiritilgan mazkur norma mamlakatimizda ushbu sohada erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, bolalarni mehnatning og'ir shakllaridan himoya qilish, sog'lom va barkamol voyaga yetishi uchun muhim huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Majburiy mehnat biror-bir jismoniy shaxsdan jazoni qo'llash tahtiddi ostida talab etiladigan, bajarilishi uchun ushbu shaxs ixtiyoriy ravishda o'z xizmatlarini taklif qilmagan har qanday ish yoki xizmatni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 5-moddasiga asosan, majburiy mehnat taqiqlanadi.

Mamlakatimizda majburiy mehnatga jalb qilganlik uchun jazo choralari ham kuchaytirildi. Misol uchun, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 51-moddasiga muvofiq, majburiy mehnatga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslar bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 50 barobaridan 100 barobarigacha (17 million so'mdan 34 million so'mgacha) miqdorda jarimaga tortiladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ta'lim tashkilotining pedagog xodimiga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz barobaridan bir yuz ellik barobarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi belgilangan.

Davomi 4-beta

